



NUTQ BUZILISHLARI TASNIFI

Abdurashidova Komila Salixdjanovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Logopediya yo'nalishi magistranti

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil Jurnal soni: 16-B Maqola raqami: 14 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1299 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS	Maqola nutq buzilishlarining shakl va turlari, ularni aniqlash mezonlari hamda nutq buzilishlarining zamonaviy tasnifi, ularning lingvistik, psixologik va nevrologik omillar bilan bog'liqligi hamda bolalar va kattalar nutq rivojlanishiga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Nutq buzilishlarini tasniflashning ilmiy asoslari, tibbiy-pedagogik va psixolog-pedagogik yondashuvlar, og'zaki va yozma nutq buzilishlari, shuningdek, ularning fonatsion va semantik-strukturaviy xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Maqolada og'zaki nutq buzilishlari: disfoniya (afoniya), bradilaliya, taxilaliya, duduqlanish, dislaliya, rinolaliya, dizartriya, alaliya, afaziya; yozma nutq buzilishlari: disleksiya va disgrafiya shakllari tahlil qilingan. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarda logopedik korreksiya ishlari va samarali pedagogik shartlar ta'kidlangan.

Kirish. Nutq buzilishlarining shakl va turlari haqidagi ilmiy asoslangan tasavvurlar shu buzilishlarni bartaraf etishning samarali usullarini ishlab chiqish uchun dastlabki shart hisoblanadi. Hozirgi davrda ham tasniflash muammosi nafaqat logopediyaning, balki nutqiy faoliyat buzilishlarini o'rganadigan boshqa ilmiy fanlarning ham muhim muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunday fanlarga quyidagilarni kiritish mumkin: neyrofiziologiya, tibbiyot, patopsixologiya va neyropsixologiya, maxsus psixologiya va pedagogikaning tarmoqlari: oligofrenopedagogika, surdopedagogika, tiflopedagogika. Nutq buzilishlarini tasniflashning murakkabligi ayrim sabablar bilan bog'langan, ular orasida nutq mexanizmining o'zi yetarlicha o'rganilmaganligi, shuningdek tadqiqotchilarning tamoyillar masalasidagi nuqtai nazarlarining mos kelmasligi yetakchi o'rinni egallaydi, tasniflash esa yuqoridagi tamoyillar asosiga qurilishi lozim.

Hozirgi davr logopediyasida nutq buzilishlarining ikkita tasnifi o'rin olgan; bittasi-tibbiy pedagogik, ikkinchisi psixolog-pedagogik yoki pedagogik (R.E.Levina bo'yicha).

Tibbiy pedagogik tasnif logopediya fani uchun an'anaviy bo'lgan tibbiyot bilan hamkorlikka tayanadi, lekin tibbiy tasnifdan farqli o'laroq, unda ajraladigan nutq buzilishlarining turlari kasallik shakllariga bog'lanmaydi. Bu asosan nutqiy nuqsonlarni tuzatishga, ularni bartaraf etishga alohida-alohida yondoshuvni ishlab chiqishga yo'naltirilgan hamda nutq buzilishlarining shakl va turlarini batafsil tekshirishga qaratilgan. Shu sababli u umumiydan xususiyga bo'lgan yondoshuvga asoslanadi.

Bunda nutq buzilishlarining material negizi bilan bog'lovchi sistemalararo munosabatlar hisobga olinadi. U qandaydir bir mezonga emas, balki psixologik-lingvistik va tibbiy (etnopatogenetik mezon bilan birlikda) mezonlarning majmuiga asoslanadi¹.

Adabiyotlar tahlili. Logopedik ta'sir etish talablaridan kelib chiqib, nutqda nima buzilganligini tasavvur etishga va shu asosda bir nutq buzilishini ikkinchisidan cheklanish belgilariga qarab ajratishga imkon beruvchi quyidagi mezonlar aniqlanadi²: 1) nutq shakllarining (og'zaki yoki yozma) buzilishi; 2) buzilgan nutq faoliyati turini shakllardan har biriga qo'llangan holda; og'zaki nutq uchun so'zlash yoki eshitishdagi buzilish, yozma nutq uchun yozish yoki o'qish buzilishi; 3) nutq paydo bo'lishi yoki uni idrok etishning buzilgan bosqichi (bo'g'ini)ning buzilishi; nutqiy faoliyatning (og'zaki va yozma) umumli turlariga tatbiqan buzilishlarning fikr aytishni ichki va tashqi jihatdan ta'minlash bosqichlari bilan bog'liq holda chegaralanishi alohida ahamiyatli sanaladi; nutqiy faoliyatning (tinglash yoki o'qish) retseptiv turlariga muvofiq buzilishlarning sensor yoki retseptiv bosqichiga kiradigan chegaralanishlari muhim sanaladi; 4) nutqning paydo bo'lishi yoki uni idrok etishning u yoki bu bosqichida fikrni amalga oshiruvchi operatsiyalarning buzilishi; 5) fikr bildirishni tayyorlash vositalarining buzilishi: bunda nutq aytish va til birliklarining chegaralanishi muhim

ahamiyat kasb etadi, chunki nutqning paydo bo'lishi yoki idrok etilishidagi har bosqichiga o'z birlik yig'indisi ahamiyatlidir, saralash va quramalash vazifasi ularga nisbatan amalga oshiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Psixologik-lingvistik mezonlar asosida ajralgan, logopedik ta'sir etishning pedagogik jarayoniga yo'naltirilgan buzilishning u yoki bu ko'rinishini to'ldirganda, ular nuqsonlarning tashqi ko'rinishdagi o'xshashliklarini quyidagilar asosida navbatdagi tasniflashni amalga oshirish uchun imkon beradi: 1) nutqning buzilishi qaysi omillar (ijtimoiy yoki biologik) bilan bog'langani; 2) u qanday ko'rinishda rivojlanmoqda (organik yoki funksional); 3) nutqiy funksional tizimining qaysi bo'g'inida to'xtab qolmoqda (markaziy yoki tashqi); 4) markaziy yoki pereferik nutq apparatining buzilishi darajasi qandayligi; 5) uning boshlanish vaqti³.

Bunday mezonlar asosida olingan ma'lumotlar logoped uchun muhimdir, chunki ular e'tiborni tuzatilishi lozim bo'lgan anatomik-fiziologik mexanizm (buzilish negizi)ga yo'naltiradi va shu bilan birga logopedik ta'sir etishning muddati va uning ehtimol tutilgan natijalarini oldindan aniqlash uchun zamin yaratadi. Bu ma'lumotlar logopedga, shuningdek logopedik ta'sir qaysi hollarda nutq buzilishlarini bartaraf etishi uchun yetarilgini, qaysi hollarda esa atroflicha tibbiy-pedagogik ta'sir etishni tashkil qilish lozimligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari. Buzilishlarning yuqoridagi tasniflashda ko'rib chiqilayotgan barcha turlarini psixolo-lingvistik mezonlar asosida nutqning qaysi turi buzilganiga qarab ikkita guruhga bo'lish mumkin: og'zaki va yozma.

Og'zaki nutqning buzilishi, o'z navbatida ikkita turga bo'linishi mumkin: 1) bayon qilishning fonatsion (tashqi) ta'minlanishi, ular nutqning talaffuz tomonining buzilishi deb ataladi va 2) bayon qilishning semantik-struktura (ichki) jihatdan ta'minlanishi, ular logopediyada nutqning uzluksiz yoki ko'p tovushli buzilishi, deb ataladi.

Bayon qilishdagi fonatsion ta'minlashning zaiflashuvi buzilgan bo'g'inga bog'liq holda tabaqalanishi mumkin: a) tovush shakllanishi, b) bayon qilishning sur'at-ohang jihatdan tashkil etilishi, v) intonatsion melodik, g) tovush chiqarishning namoyon bo'lishi. Bu zaiflashuvlar turli jarayonlarda mavhum holda kuzatilishi mumkin, logopediyada ularga bog'liq bo'lgan buzilishning quyidagi turlari ajratiladi (ularni belgilash uchun an'anaviy bo'lib qolgan atamalar mavjud)⁴:

Disfoniya (afoniya)-tovush apparatining patologik o'zgarishlari oqibatida fanatsiyaning yo'q bo'lishi yoki zaiflashuvi. Ma'nodoshlari: tovushning buzilishi, fonatsiyaning buzilishi, fonotor buzilishlar, vakal buzilishlar.

Tovush yuqoriligi va yo'g'on-ingichkaligi (disfoniya) goho fonatsiya (afoniya) ning yo'q bo'lishida, goho quvvatning buzilishida namoyon bo'ladi. U markaziy yoki sirtqi to'xtalish tovush chiqarish mexanizmining organik yoki funksional zaiflashuvi bilan bog'liq bo'lishi va bola rivojlanishining har qanday bosqichida yuzaga chiqishi mumkin.

¹ Аюпова М.Ю. Логопедия. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2013. – 25 б.

² Shomahmudova R. To'g'ri talaffuzga o'rgatish va nutq o'stirish. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2013. – 130 b.

³ Краузе Е.Н. Логопедия. – Санкт-Петербург: Корона, 2003. – 288 с.

⁴ Филичева Т.Б. Особности формирования речи детей дошкольного возраста. – Москва: [б. и.], 2000. – 224 с.

U alohida bo'ldi yoki nutq buzilishlarining qator boshqa turlari tarkibiga kiradi.

Bradilaliya-nutqning patologik sekinlashgan sur'ati. Artikulyar nutq dasturining sekinlashgan ishlab chiqarishda namoyon bo'ldi, markaziy bog'langan va o'z tabiatiga ko'ra organik yoki funksional bo'lishi mumkin.

Taxilaliya-nutqning patologik tezlashgan sur'ati. Artikulyar nutq dasturining tezlashgan holda amalga oshirilishida namoyon bo'ldi, o'z tabiatiga ko'ra, markaziy bog'langan, organik yoki funksional hisoblanadi.

Sekinlashgan sur'atdagi nutq cho'ziq tortilgan, bir ohangda bo'ldi. Tezlashgan sur'atda-shoshilinch, intiluvchan, shiddatli ekanligi ko'zga tashlanadi. Nutqning tezlashuvi agromatizmlar bilan birga sodir bo'lishi mumkin. Bunday holatlar ayrim paytlarda battarizm, parafraziya atamalarini bilan ataluvchi mustaqil buzilishlar sifatida ajratiladi. Patologik tezlashgan nutqning asoslanmagan bo'linishlar, tutilish, to'xtab qolishlar bilan uchraydigan hollarda u poltern atamasi bilan ataladi. Bradilaliya va taxilaliya-nutq sur'atining buzilishi-nutq jarayonining ravonligi, nutqning ohang va melodik-intonatsion ifodaliligidagi buzilishi oqibati hisoblanadi.

Duduqlanish-nutq apparati mushaklarining va ixtiyoriy pay tortishish natijasida sur'at-ohangning buzilishidir.

Markaziy bog'langan bo'ldi, funksional yoki organik ko'rinishga ega, ko'proq bola nutqning rivojlanishida paydo bo'ldi.

Dislaliya-tovush talaffuz qilishning normal eshitish va nutq apparatining saqlangan innervatsiyasi paytida buzilishi. Nutqning noto'g'ri tovushli (fonemali) turlanishida: tovushlarni buzib talaffuz qilishda, tovushlarning almashinuvi yoki ularning yo'qligida namoyon bo'ldi. Nuqson shuning bilan bog'liq bo'lishi mumkinki, bunday paytda bolada artikulyar baza shakllanmaydi (artikulyar tomonning tovush talaffuz etish uchun zarur bo'lgan barcha jihatlarini o'zlashtirilmaydi) yoki artikulyar tomon noto'g'ri shakllanadi. Buning oqibatida nomuvofiq tovushlar hosil bo'ldi. Artikulyatsion apparatning anatomik nuqsonlari bilan bog'langan buzilishlar alohida guruhni tashkil etadi. Talaffuzning buzilishi psixolingvistik jihatdan yo fonemalarni ajratish va anglash operatsiyalarining shakllanmaganligi oqibati (ya'ni idrok etishdagi nuqsonlar) yoki saralash va ishlab chiqarish (shuningdek, unumlilik nuqsoni) vazifasini shakllanmaganligi, yohud tovushlarni ishlab chiqarish shartlarining buzilganligi, deb qaraladi.

Anatomik nuqsonlarda buzilishlar organik xususiyatga, ularning ishtirokisiz esa funksional xususiyatga ega bo'ldi.

Buzilishlar odatda bola nutqining rivojlanish jarayonida; perefirik apparatning jihozlanish hollarida u har qanday yoshda paydo bo'lishi mumkin.

Tavsif qilingan nuqsonlar saylanma hisoblanadi va ularning har biri mustaqil notekislik maqomiga egadir. Ammo shundaylari ham uchraydiki, ularda tovushni bayon qilishning fonatsion turlanishlari murakkab mexanizmdagi bir necha bo'g'inlarning bir paytning o'zida xastalashuvi kuzatiladi. Bundaylarga rinolaliya va dizartriya kiradi.

Rinolaliya- tovush tembr va talaffuzining nutq apparatidagi anatomik-fiziologik nuqsonlar bilan bog'liq holdagi buzilishdir. Tovush tembrining patologik o'zgarishida namoyon bo'ldi. Bu holat chiqarilayotgan nafas oqimining barcha nutq so'zlarini talaffuz qilish paytida burun bo'shlig'iga o'tishi va unda aks-sado berishi oqibatidir. Rinolaliya paytida bundan tashqari barcha nutq tovushlarining (dislaliya holatidagi kabi alohida tovushlarni emas), buzib talaffuz etilishi kuzatiladi. Bunday nuqsonda prosodik buzilishlar ham tez-tez uchraydi, rinolaliya paytidagi nutq kam tushunarsiz, (noaniq), bir ohangli bo'ldi. Mamlakat logopediyasida tanglayning tug'ma yoriqligi, shuningdek, artikulyar apparatning qo'pol anatomik buzilishlarini rinolaliyaga kiritish qabul qilingan. Bunday buzilishlar chet ellardagi qator ilmiy ishlarda «palatolaliya» (lotincha palatum-tanglay) atamasi bilan ataladi. Qolgan barcha hollardagi tovushlarning turli lokalizatsiyalarning funksional yoki organik buzilishlari bilan bog'liq noto'g'is talaffuzi bunday ishlarda rinolaliya deb ataladi. Vatanimizda so'ngi yillarda olib borilgan ilmiy ishlarda qo'pol artikulyatsion buzilishlari bo'lmagan noto'g'is talaffuzlarning ko'rinishlari rinofoniya ga kiritilmoqda

Logopediya amaliyotida rinolaliyani yaqin vaqtlargacha mexanik displaniyaning bir shakli deb qaralar edi. Buzilishning o'ziga xos

xususiyatini hisobga olib, rinolaliyani alohida nutq buzilishi sifatida ajratish lozim.

Dizartriya-nutq talaffuzi tomonining nutq apparati innervatsiyasidagi yetishmovchilik bilan bog'liq holdagi buzilishidir⁵. Bunda fonatsion turlanishdagi bayonning murakkab mexanizmlari barcha bo'g'inlarning shakllanmagani kuzatiladi. Buning natijasida tovush nuqsonlari, prosodik va artikulyatsion-fonetik nuqsonlari paydo bo'ldi. Tovushli nutqni ishlab chiqarishning imkoni bo'lmagan paytda paydo bo'ladigan anartriya dizartriyaning og'ir darajasi hisoblanadi. Yengil dizartriya paytida, qachonki nuqson ko'proq artikulyar, fonetik buzilishlarda namoyon bo'lganida, uning uncha bilinmaydigan shakli haqida so'z yuritiladi. Bunday holatlarni displaniyadan ajratish lozimdir.

Dizartriya markaziy harakterdagi organik buzilishlarning oqibati hisoblanadi. Markaziy asab tizimi buzilishini lokalizatsiyalashtirish dizartriyaning turli shakllari ajratib ko'rsatiladi. Buzilishning og'irligiga qarab esa, dizartriyaning paydo bo'lish darajalari farq qilinadi.

Dizartriya ko'pincha bosh miyaning erta falajlanishi natijasida paydo bo'ldi, lekin u bola rivojlanishning har qanday bosqichda neyroinfeksiya va miyaning boshqa kasalliklari oqibatida paydo bo'lishi ham mumkin.

Bayon qilishning strukturali-simantiq (ichki) turlanishidagi buzilishi ikki tur: alaliya va afaziya bilan ko'rsatiladi.

Alaliya-bosh miya qobig'idagi nutq zonalarining bolaning ona qornidagi yoki ilk rivojlanish davrida organ shikastlanishi natijasida nutqning yo'q bo'lishi yoki rivojlanmay qolishi. Ma'nodoshlari: disfaziya, erta yoshda paydo bo'ladigan bolalar afaziyasi, rivojlanish afaziyasi, gunglik (eskirgan).

Nutqning eng murakkab nuqsonlaridan biri, bunda nuqtiiy bayonning paydo bo'lishi va uni qabul qilishning barcha bosqichlaridagi tanlash va rejalashtirish operatsiyalari buzilgan bo'ldi. Uning natijasida bolaning nuqtiiy faoliyati rivojlanmay qoladi. Til vositalari tizimi (fonetik, grammatik, leksik) shakllanmaydi, nutq paydo bo'lishining harakat-qo'zg'atuvchanlik darajasi xastalashadi. Qo'pol semantiq nuqsonlar kuzatiladi. Nutq harakatlarini boshqarish buziladi, bu tovush chiqarish va so'zning bo'g'in tarkibiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Qanday nutq mexanizmlari shakllanmagani va ularning qaysi bosqichlari (darajalari) ko'proq xastalanganiga bog'liq ravishda alaliyaning bir necha turlari uchraydi.

Afaziya - bosh miyaning muayyan joyi shikastlanishi bilan bog'liq holda nutqning to'liq yoki qisman yo'qolishi⁶. Ma'nodoshlari: nutqning buzilishi, yo'qolishi.

Bola nutqining bosh miya jarohatlanishi, neyroinfeksiya yoki miya shishi natijasida yo'qolishi nutqning shakllanib bo'lganidan so'ng sodir bo'lsa, unda bolalar afaziyasi deb nomlanadi. Agar buzulish kattaroq yoshda yuz bergan bo'lsa, unda afaziya haqida fikr yuritiladi.

Yozma nutqning buzilishi. Uning qaysi turi buzilganiga qarab ikki guruhga ajratiladi. Mahsuldor tur buzilganida yozuvning zaiflashuvi, retseptli yozma faoliyat buzilganida-o'qishning zaiflashuvi qayt qilinadi.

Disleksiya - o'qish jarayonining qisman o'ziga xos buzilishi.

Harflarni idrok etish va tanishdagi qiyinchiliklarda; harflarni bo'g'inlarga qo'shish va bo'g'inlardan so'z tuzish borasidagi tutilishlarda (bu so'z shakllarini noto'g'ri talqin qilishga olib keladi); agrammatizm va o'qiganlarini buzib tushunishda namoyon bo'ldi.

Disgrafiya - yozish jarayonining qisman o'ziga xos ravishda buzilishi⁷.

Harfning optik-fazoviy obrazining turg'un emasligida, harflarning aralashib ketishi yoki tushib qolishida, so'zning so'z-bo'g'in tarkibini bayon qilish va gap qurilishida namoyon bo'ldi. O'qitish davomida yozish jarayoni shakllanmagan hollarda agrafiya haqida fikr yuritiladi.

Bolalardagi yozish va o'qishning buzilishi bu jarayonlarni to'liq holda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar orqali yuzaga keladi. Tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, bu qiyinchiliklar og'zaki nutqdagi nuqsonlar (optik shakllardan tashqari), tovush tahlili ishini shakllanmagani va ixtiyoriy diqqatning beqarorligi bilan bog'liq bo'ldi.

Bolalardagi yozish va o'qishning buzilishini yozish, o'qishdagi bilim va ko'nikmalarning yo'qolishidan, shuningdek afaziya paytida yuzaga keladigan disleksiya (aleksiya) va disgrafiya (agrafiya)dan ajrata bilmoq lozim.

⁵ Аюпова М.Ю. Логопедия. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2013. – 56 б.

⁶ Аюпова М.Ю. Логопедия. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2013. – 95 б.

⁷ Аюпова М.Ю. Логопедия. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2013. – 126 б.

Shunday qilib, logopediyada nutq buzilishlarining 11 ta shakli ajratiladi, ulardan 9 tasi og'zaki nutq natijasi va ishlab chiqarishning turli jarayonlardagi buzilishlarini tashkil etadi. Qolgan 2 ta shakl esa yozma nutqning buzilish jarayoni bilan bog'liq holda ajratiladigan buzilishlarni o'z ichiga oladi. Og'zaki nutqning buzilishlari orasida disfoniya (afoniya), taxilaliya, brodilaliya, duduqlanish, dislaliya, rinolaliya, dizartriya (anartriya), alaliya, afaziya ajratiladi; yozma nutqning buzilishlari orasida disleksiya (aleksiya) va disgrafiya (agrafiya) ajratiladi.

Keltirilgan tasniflarga nutq buzilishlarining faqat shunday shakllari kiritilganki, ular logopedik adabiyotda ko'rsatilgandir va ularga tadbigan metodikalar ishlab chiqilgan. Har bir nutq buzilishlari shakllari ichida turlar va turchalar ajratiladiki, ular navbatdagi boblarda aks ettirilgan. Shu munosabat bilan shuni aytib o'tish kerakki, qator hollarda bir shaklga taalluqli nutq buzilishlari varianti emas, balki alohida buzilishni o'zida namoyon qiladi. Masalan, dislaliyaga, bir tomondan, artikulyar-fonetik buzilishlar, ya'ni nutqning nutq normasi darajasiga taalluqli xususiy ovoiz ishlab chiqarishdagi nuqsonlar, boshqa tomondan esa-operatsiyalarning shakllanmagani bilan bog'liq holdagi tovushlar tanlovini amalga oshiradigan va bayon qilishning (tilli) turlanish darajasiga taalluqli fonetik buzilishlar kiradi.

Keltirilgan tasnifning izchil emasligi nutq (psixologik va fiziologik) mexanizmlari haqidagi bilimlar va logopediyadagi yangi tadqiqodlarning o'sishi bilan bog'liq holda fanning zamonaviy taraqqiyoti davrida ayniqsa sezilarli tus oldi. Fan taraqqiyotidagi har bir yangi bilimlar avvalgi tasavvurga o'zgartirishlar kiritilishini talab etadi. Shuning uchun nutq buzilishlarini masalalarini bundan keyingi ishlab chiqarish logopediyasining dolzarb vazifasi bo'lib qoladi.

Nutq tizimining tuzilish komponenti (tovush tomoni, grammatik tuzilishi, lug'at zonasi), nutqning funksional jihatlari, nutqiy faoliyat turlarining (og'zaki va yozma) o'zaro aloqadorligi hisobga olinadi.

Keltirilgan tasnifda nutq buzilishlari ikki guruhga bo'linadi.

Birinchi guruh-muomala vositalarining (nutqning fonetik va fonematik va umumiy rivojlanmay qolishi) buzilishi.

1. Nutqning fonetik va fonematik rivojlanmay qolishi-bolalarda ona tilini talaffuz qilish tizimi shakllanish jarayonlarining fonemalarini idrok etish va talaffuzdagi nuqsonlar oqibatida turlicha nutq zaiflashuvlari bilan bog'liq ravishda buzilishlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Аюпова М.Ю. Логопедия. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2013. – 256 б.
2. Волкова Л.С. Логопедия. – Москва: Владос, 2003. – 312 с.
3. Краузе Е.Н. Логопедия. – Санкт-Петербург: Корона, 2003. – 288 с.

2. Nutqning to'liq rivojlanmay qolishi-turli xil murakkab nutqiy kamchilikdir, bunda nutq tizimining tovush chiqarish va ma'noli tomonlariga taalluqli barcha komponentlarining shakllanish jarayoni buzilgan bo'ladi.

Umumiy alomatlari sifatida quyidagilar qayd qilinadi: nutq rivojlanishining kech boshlanishi, lug'at boyligining kamligi, agrammatizm, talaffuzdagi nuqsonlar, fonemalar tuzilishdagi nuqsonlar.

Maktabgacha yoshdagi nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologik-pedagogik ishlarni olib borishda quyidagi shartlarga amal qilgan holda olib borilganidagina bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi:

- bola tomonidan maqsadni tushunilishi. Bunda bolaning yosh va psixologik xususiyatlari hisobga olingan holda, vazifalar aniq belgilanishi, bajarilish usullari aniq ko'rsatilishi bilan bog'liq;

- sistemalilik, ya'ni ko'p marotabadan taqrorlash (logopedik mashg'ulotlarda, mashg'ulotlardan tashqari, darsda, turli xil muloqot shakllarida);

- bolaning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda korreksiyalash ishlarini murakkablashtirib borish;

- amaliy va nutqiy harakatlarni tushunib bajarish;

- korreksiyalash ishlarining oxirgi bosqichida mustaqil bajariladigan harakatlar (avval logoped yordamida, mexanik vositalar yordamida va h.k.).

- bajarilgan topshiriqlarni differensial tahlil qilish va baholash.

Xulosa va takliflar. Nutq buzilishlarining shakl va turlarini aniqlash, ularning etiologiyasi va mexanizmlari haqidagi ilmiy tasavvurlar logopedik va psixologik-pedagogik ishlarda samarali korreksiya usullarini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi. Og'zaki va yozma nutq buzilishlari turli patologik va funksional o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, ularning har bir shakli logopedik yondashuv va mashg'ulotlar orqali bartaraf etilishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq nuqsonlarini tuzatish jarayonida individual-psixologik xususiyatlarni hisobga olish, topshiriqlarni tizimli ravishda takrorlash va mustaqil bajarish imkoniyatlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, logopedik korreksiya jarayonida nutqning fonetik, fonematik, grammatika va lug'at komponentlari bilan birgalikda rivojlantirilishi samarali natijaga erishishni ta'minlaydi.

4. Филичёва Т.Б. Особенности формирования речи детей дошкольного возраста. – Москва: [б. и.], 2000. – 224 с.

5. Shomahmudova R. To'g'ri talaffuzga o'rgatish va nutq o'stirish. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2013. – 130 b.